

Oriental Journal of Education



FACTORS SHAPING THE PERSONAL AND PROFESSIONAL COMPETENCIES OF A TECHNOLOGY TEACHER

L.E. Yunusov

Chief specialist of the Avloniy National
research institute of pedagogical skills
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Technology” teacher, personal and professional competence, competence formation, quality of education, professional development, pedagogical skill.

Received: 04.12.25**Accepted:** 05.12.25**Published:** 06.12.25

Abstract: This article comprehensively analyzes the key factors that form the personal and professional competencies of a “Technology” subject teacher. It is substantiated that the quality of the educational system is directly dependent on the teacher's level of preparation, personal qualities, and professional skills. The study examines the structural components of these competencies (motivational, cognitive, operational) and identifies modern methods and didactic conditions for their improvement. The findings of the article include practical recommendations for ensuring the continuous professional development of teachers and enhancing the quality of education.

**“TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHISINING SHAXSIY-KASBIY
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARGA OID**

L.E. Yunusov

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat
milliy instituti yetakchi mutaxassisi
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Texnologiya” fani o‘qituvchisi, shaxsiy-kasbiy kompetensiya, kompetensiyani shakllantirish, ta’lim sifati, kasbiy rivojlanish, pedagogik mahorat.

Annotatsiya: Maqolada “Texnologiya” fani o‘qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi asosiy omillar har tomonlama tahlil qilingan. Ta’lim tizimining sifati bevosita o‘qituvchining tayyorgarligi, shaxsiy fazilatlari va kasbiy mahoratiga bog‘liq ekanligi asoslangan. Maqolada mazkur kompetensiyalarning tarkibiy qismlari (motivatsion, kognitiv, operatsion)

ko'rib chiqilib, ularni takomillashtirishning zamonaviy metodlari va didaktik shart-sharoitlari haqida so'z borgan. Maqola natijalari o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЯ ПРЕДМЕТА “ТЕХНОЛОГИЯ”

Л.Э. Юнусов

*Ведущий специалист Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: учитель технологии, личностно-профессиональная компетенция, формирование компетенций, качество образования, профессиональное развитие, педагогическое мастерство.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются ключевые факторы, формирующие личностно-профессиональные компетенции учителя предмета "Технология". Обосновывается, что качество образовательной системы напрямую зависит от уровня подготовки, личных качеств и профессионального мастерства преподавателя. В статье рассмотрены структурные компоненты данных компетенций (мотивационный, когнитивный, операционный) и определены современные методы и дидактические условия их совершенствования. В ней содержатся также практические рекомендации по обеспечению непрерывного профессионального развития учителей и повышению качества образования.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining global transformatsiyasi sharoitida, har qanday fan o'qituvchisining, xususan, "Texnologiya" fani o'qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetentligi masalasi markaziy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'limning bosh maqsadi - nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni tez o'zgaruvchan ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotga moslashtira oladigan, mustaqil fikrlaydigan, muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan yetuk shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Aynan mana shu maqsadga erishishda o'qituvchining kompetensiyalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'limni rivojlantirish strategiyalarida kompetentlikka asoslangan yondashuvning ustuvorligi bejiz emas, zero, bu yondashuv o'qituvchini o'z faoliyatida standart bilimlarni takrorlashdan ko'ra, amaliy ko'nikmalarni, tanqidiy fikrlashni va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga undaydi.

"Texnologiya" fani o'qituvchisining kompetentligiga qo'yiladigan talablar ayniqsa yuqori, chunki bu fan o'quvchilarning ijodiy salohiyatini, texnik tafakkurini va mehnat madaniyatini

shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli, o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining chuqur bilimdoni, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mohirlik bilan qo‘llay oladigan, o‘z kasbiga fidoyi, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnata oladigan yetuk shaxs bo‘lishi talab etiladi. Shaxsiy-kasbiy kompetentliklarning shakllantirilishi - bu bir zumda amalga oshadigan jarayon emas, balki doimiy izlanish, uzluksiz malaka oshirish va o‘zini o‘zi rivojlantirish orqali erishiladigan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan uzluksiz jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda ta‘lim sohasidagi tadqiqotlar kompetensiyalarning o‘qituvchi faoliyatidagi samaradorligini va ta‘lim sifatini oshirishdagi beqiyos o‘rnini bir ovozdan tasdiqlamoqda.

Kompetensiyalar - bu faqatgina bilimlar yig‘indisi emas, balki murakkab kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir. Shu bois, ushbu kompetensiyalarni shakllantiruvchi omillarni chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy ta‘lim tizimining kelajak avlod talablariga javob bera oladigan darajada rivojlanishini ta‘minlaydi. Ushbu maqola aynan “Texnologiya” fani o‘qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi ana shunday muhim omillarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

Shuni a‘lohida ta‘kidlash kerakki, bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan davrda, ta‘lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar ham tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar, ijodiy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan “Texnologiya” fani o‘qituvchisining roli beqiyosdir. Ushbu fan o‘qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalari nafaqat ta‘lim sifatini, balki o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy o‘zini anglashini ham belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. O‘qituvchining bilim, malaka, shaxsiy fazilatlar va kasbiy madaniyatining yig‘indisi bo‘lgan bu kompetensiyalar majmuasini shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u turli xil ichki va tashqi omillar ta‘sirida yuzaga keladi. Ushbu maqolada “Texnologiya” fani o‘qituvchisining ana shu muhim kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan atroflicha tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

“Texnologiya” fani o‘qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalari uzviy bog‘liq bo‘lgan kasbiy (fanga oid) kompetensiya, metodik kompetensiya va shaxsiy (psixologik-pedagogik) kompetensiya kabi uch asosiy yo‘nalishni qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogika fanida har qanday mutaxassisning, jumladan, “Texnologiya” fani o‘qituvchisining professional yetukligi yagona va bir butun tizim sifatida qaraladi. O‘qituvchining shaxsiy-kasbiy kompetentligi aslida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, birisiz ikkinchisi samara bermaydigan uchta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Bu yo‘nalishlar o‘qituvchi faoliyatining barcha jihatlarini, uning fanga bo‘lgan munosabatidan tortib, to o‘quvchilar bilan individual ishlash uslubigacha aks ettiradi.

Birinchi va asosiy yoʻnalish – bu kasbiy (fanga oid) kompetensiyadir. Bu, eng avvalo, oʻqituvchining “Texnologiya” fani boʻyicha chuqur va mukammal bilimga ega boʻlishi, fanning nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini, zamonaviy texnika va texnologiyalarning tendensiyalarini yaxshi tushunishini anglatadi. Oʻqituvchi bu kompetensiya doirasida materiallarni tizimli ravishda taqdim etish, texnik chizmalarni oʻqish va tuzish, mehnat xavfsizligi qoidalarini taʼminlash kabi maxsus koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim. Bu kompetensiyaning yuqori darajada boʻlishi oʻqituvchiga oʻquvchilarning fanga qiziqishini uygʻotish, oʻquv materialini hayotiy misollar bilan boyitish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim yoʻnalish – metodik kompetensiyadir. Bu oʻqituvchining oʻquv jarayonini samarali tashkil etish, oʻquvchilarga bilimlarni yetkazishning eng maqbul usullari va vositalarini tanlash qobiliyatidir.

Metodik kompetentlik oʻqitishning zamonaviy interaktiv usullarini (masalan, loyiha usuli, muammoli oʻqitish, case-study) mohirona qoʻllashni, oʻquv dasturini ijodiy ravishda moslashtirishni va, eng muhimi, oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini adekvat baholashni talab qiladi. Bu kompetensiya oʻqituvchiga har bir oʻquvchining individual xususiyatini inobatga olgan holda taʼlim jarayonini farqlab olib borish imkonini beradi.

Uchinchi va hal qiluvchi yoʻnalish – shaxsiy (psixologik-pedagogik) kompetensiyadir. Bu kompetensiya oʻqituvchining shaxsiy sifatleri, uning oʻquvchilar bilan munosabatlarini samarali qurish qobiliyati bilan bogʻliq. U oʻziga ishonch, emotsional barqarorlik, adolatlilik, talabchanlik, empatiya, va albatta, yuqori darajadagi kommunikativlikni oʻz ichiga oladi. Psixologik-pedagogik kompetensiya oʻqituvchiga oʻquvchi jamoasida sogʻlom muhit yaratish, nizolarni konstruktiv hal etish, oʻquvchilarni motivatsiyalash va ularda mehnatsevarlik, masʼuliyat kabi muhim shaxsiy sifatleri tarbiyalash imkonini beradi [11].

Xulosa qilib aytganda, “Texnologiya” fani oʻqituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetentligi aynan ushbu uchta komponentning muvofiq va uygʻun birligida namoyon boʻladi. Ularning har birining rivojlanishi oʻqituvchining kasbiy faoliyatining samaradorligi va taʼlim tizimining umumiy sifatini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot va muhokama. Mazkur kompetensiyalarning har birini shakllantiruvchi omillar turli xil koʻrinishga ega boʻladi:

1. Tashkiliy-pedagogik omillar.

Bu omillar oʻqituvchi faoliyat koʻrsatadigan taʼlim muhitining sifatini, shuningdek, uning kasbiy rivojlanishiga oid tizimli choralarni oʻz ichiga oladi.

Taʼlim dasturlari va standartlarining sifati: Fan oʻqituvchisining kompetensiyasi birinchi navbatda uning dasturiy bilimlari darajasiga bogʻliq. Texnologiya taʼlimi boʻyicha sifatli davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturlarining mavjudligi, ularning doimiy ravishda zamonaviy ishlab chiqarish

texnologiyalari va iqtisodiyot talablariga moslashtirib borilishi o'qituvchining predmet-metodik kompetensiyasini oshirish uchun poydevor yaratadi [6].

Kasbiy malaka oshirish tizimi: O'qituvchining uzluksiz rivojlanishi, ya'ni muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashishi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishi zarur. Bu jarayon innovatsion kompetensiya va axborot-kommunikatsiya kompetensiyasining asosiy manbai hisoblanadi [3].

O'zaro tajriba almashish muhiti: Maktab ichidagi va hududiy metodik birlashmalar faoliyatining samarali tashkil etilishi, yosh o'qituvchilarga tajribali ustozlar tomonidan ustoz-shogird an'anasi asosida yordam berilishi kollaborativ kompetensiyani shakllantiruvchi muhim omildir.

2. Shaxsiy-motivatsion omillar. Bu omillar o'qituvchining ichki dunyosi, uning kasbga bo'lgan munosabati va intilishlari bilan bevosita bog'liq.

Kasbga bo'lgan ichki motivatsiya va qiziqish: o'qituvchining o'z fanini va pedagogik faoliyatini chin dildan sevishi, doimiy ravishda o'z bilimlarini chuqurlashtirishga, yangi texnologiyalarni o'rganishga bo'lgan intilishi motivatsion kompetensiyaning asosini tashkil etadi. Agar o'qituvchida kasbiy ehtiros mavjud bo'lsa, u qiyinchiliklarga qaramasdan o'z malakasini oshirishda davom etadi [12].

Refleksiv qobiliyat: O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qila olishi, erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida xolisona fikrlash (refleksiya) qobiliyati uning avtopsixologik kompetensiyasini shakllantiradi. Bu o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini takomillashtirishning boshlanish nuqtasidir.

Kreativlik va ijodkorlik: "Texnologiya" fani amaliy va ijodiy yo'nalishga ega bo'lgani bois, o'qituvchida kreativ kompetensiya – yangi g'oyalarni ishlab chiqish, nostandart yechimlarni topish va o'quv jarayoniga ijodiy yondashish qobiliyatining mavjudligi shart [6].

3. Ijtimoiy-psixologik omillar.

Ta'lim jarayoni ijtimoiy-psixologik o'zaro munosabatlar maydoni bo'lgani sababli, bu omillarning ahamiyati juda yuqoridir.

Kommunikativlik va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik: O'qituvchining o'quvchilar, ularning ota-onalari va hamkasblari bilan samarali muloqot o'rnatish, konfliktli vaziyatlarni bartaraf etishi, shuningdek, empatiya kabi fazilatlarini kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonining psixologik qulayligini ta'minlaydi [7].

Pedagogik etika va axloq: O'qituvchining yuksak axloqiy fazilatlarini, adolatlilik, vijdonlilik, o'quvchiga hurmat kabi shaxsiy sifatlarini uning sotsial-madaniy kompetensiyasini belgilaydi. Bu fazilatlar pedagogik faoliyatning tarbiyaviy samaradorligini oshiradi.

Shaxsiy dinamizm va hissiy barqarorlik: Hissiy jihatdan bardoshli, o'zgaruvchan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lish "Texnologiya" fani o'qituvchisi uchun muhimdir,

chunki amaliy mashg'ulotlar ko'pincha kutilmagan vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu ekstremal kompetensiya va hissiy-irodaviy barqarorlikni shakllantiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

“Texnologiya” fani o'qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalariga tayangan holda, “Texnologiya” fani o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va mustahkamlash bo'yicha aniq, kompleks va ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar tizimini taklif etamiz. Bu tavsiyalar tashkiliy-pedagogik muhitni takomillashtirish, shaxsiy-motivatsion omillarni rag'batlantirish va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni kuchaytirish kabi uch asosiy yo'nalishni qamrab oladi [6].

Birinchi yo'nalish – o'qituvchining kasbiy (fanga oid) kompetensiyasini amaliy jihatdan kuchaytirish uchun maktablardagi “Texnologiya” ustaxonalarini zamonaviy ishlab chiqarish uskunalariga, xususan, 3D printerlar, lazerli kesish stanoklari va robototexnika konstruktorlariga moslashtirilgan o'quv-amaliy maydonchalarga aylantirish lozim. Shuningdek, metodik va innovatsion kompetensiyani maqsadli rivojlantirish maqsadida Malaka oshirish institutlarida umumiy kurslar o'rni, o'qituvchi ehtiyojidan kelib chiqqan tor ixtisoslashgan modullar asosida, masalan, “Texnologiya ta'limida raqamli loyihalash” kabi kurslarni tashkil etish zarur.

Ikkinchi yo'nalish – o'qituvchining avtopsixologik kompetensiyasini mustahkamlash uchun har chorak yakunida o'z pedagogik faoliyati, yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilishi, ya'ni o'z-o'zini baholashi (refleksiya) uchun Portfoliolar yoki Refleksiv kundaliklar kabi maxsus shakllarni majburiy kiritish tavsiya etiladi. Ularning kreativ kompetensiyasini va kasbga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshirish maqsadida o'qituvchilar o'rtasida “Yilning eng yaxshi texnologik yechimi” kabi ijodiy loyiha tanlovlarini muntazam o'tkazish hamda g'oliblarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini kuchaytirish zarur.

Bundan tashqari, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini tizimli asosda shakllantirish uchun har bir o'qituvchi uchun, uning dastlabki diagnostikasi asosida, kelgusi 3-5 yilga mo'ljallangan shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasi (Individual Development Plan) tuzishga ko'mak berish muhimdir.

Uchinchi yo'nalish – o'qituvchining kommunikativ va pedagogik kompetensiyasini kuchaytirish maqsadida ularni o'quvchilar, ayniqsa, murakkab o'quvchilar bilan to'g'ri muloqot qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan amaliy-psixologik treninglarga jalb qilish lozim.

Yosh mutaxassislarning adaptiv kompetensiyasini tezroq rivojlantirishga yordam beruvchi ustoz-shogird tizimini faollashtirish va uning natijadorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhimdir.

Nihoyat, o'qituvchilarning hissiy-irodaviy barqarorligini va sotsial-madaniy kompetensiyasini mustahkamlash uchun ularni professional stressni boshqarish, emotsional kuyish (burnout) oldini olish,

shuningdek, pedagogik etika qoidalariga rioya qilish bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etish zarur [10].

Ushbu kompleks tavsiyalar majmuasi "Texnologiya" fani o'qituvchisining nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishga xizmat qilib, pirovardida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Xulosa. "Texnologiya" fani o'qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uzluksiz, kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Yuqorida tahlil qilingan omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda o'qituvchi shaxsining to'laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi uchun sifatli dasturiy ta'minot va innovatsion ta'lim muhiti yaratilishi zarur bo'lsa, shaxsiy kompetensiyalarning rivojlanishi uchun o'qituvchining o'ziga xosligi, ichki motivatsiyasi va refleksiv qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimining barcha ishtirokchilari – ta'limni boshqarish organlaridan tortib, maktab ma'muriyati va o'qituvchining o'ziga qadar – ushbu omillarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashlari va rag'batlantirishlari lozim. Zero, zamonaviy malakali "Texnologiya" fani o'qituvchisi – bu nafaqat bilim beruvchi, balki innovator, ijodkor shaxs va kelajak bunyodkori hisoblanadi. Ularning har tomonlama yetukligi ta'lim sifatini oshirishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
2. A.X.Qosimov, F.A.Holiqova. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. Fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent 2004 y.
3. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.-Toshkent: «Fan», 2004.-173 b.
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Darslik. T.: TDPU. 2015 yil.
5. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: TDPU. 2007 yil.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2011.
7. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. – 64 b.
8. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. –T.: 2012. 104 b.
9. Imran R. Shaikh. Introduction to Educational Technology and ICT.McGraw Hill Education.India., 2013

10. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. –T.: 2014.
11. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 168 b.
12. Avazov G‘.B. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodkarining pedagogik -psixologik imkoniyatlari// “Inter education & Global study” (Scientific Theoretical and methodical journal).-2024, Vol.10.- P.50-57.